“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=346

2026-yil
1-son
yanvar
ISSN 3093-8546



Huquqiy xizmatlarni raqamlashtirish jarayonida adolatlilik printsipini ta’minlash

Shahriyor Normamatov,
Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoiy odil sudlov fakulteti talabasi
e-mail: seymriforever25@gmail.com

Аннотация. Maqolada O‘zbekistonda huquqiy xizmatlarni raqamlashtirish jarayoni va unda adolatlilik prinsipini ta’minlash masalalari tahlil qilinadi. Elektron hukumat e-sud, my.gov.uz, advice.uz, e-notarius kabi platformalar huquqiy xizmatlardan foydalanish samaradorligini oshirgan bo‘lsa-da, hududiy, ijtimoiy va texnologik tafovutlar sabab barcha fuqarolar uchun teng imkoniyatlar to‘liq ta’minlanmagan. Tadqiqotda algoritmik tarafkashlik, raqamli savodxonlik pastligi va infratuzilma muammolari yoritilgan. Estoniya, Janubiy Koreya va Singapur tajribasi bilan qiyosiy tahlil asosida raqamli adolatni ta’minlash bo‘yicha ilmiy-amaliy xulosalar berilgan.

Калит сўзлар. Raqamli huquqiy xizmatlar, adolatlilik prinsipi, elektron hukumat, e-sud, e-notarius, algoritmik tarafkashlik, raqamli adolat, teng imkoniyatlar

Аннотация. В статье анализируется процесс цифровизации юридических услуг в Республике Узбекистан и обеспечение принципа справедливости. Внедрение электронных платформ, таких как электронное правительствое-sud, my.gov.uz, advice.uz, e-notariusповысило эффективность правовых услуг, однако территориальные, социальные и технологические различия препятствуют равному доступу граждан. Рассматриваются проблемы алгоритмической предвзятости, недостаточной цифровой грамотности и ограниченной инфраструктуры. На основе сравнительного анализа опыта Эстонии, Южной Кореи и Сингапура сформулированы выводы и предложения по обеспечению цифровой справедливости в системе юридических услуг.

Ключевые слова. Цифровые юридические услуги, принцип справедливости, электронное правительство, е-суд, е-нотариат, алгоритмическая предвзятость, цифровая справедливость, равный доступ

Annotation. The article analyzes the digitalization of legal services in the Republic of Uzbekistan with a focus on ensuring the principle of fairness. The implementation of e-government,e-sud, my.gov.uz, advice.uz, e-notariusplatforms has improved efficiency; however, regional, social, and

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

technological disparities limit equal access for all citizens. The study highlights challenges related to algorithmic bias, insufficient digital literacy, and infrastructure gaps. Based on a comparative analysis of Estonia, South Korea, and Singapore, the article proposes conclusions aimed at strengthening digital justice and fairness in legal services.

Keywords. Digital legal services, principle of fairness, e-government, e-court, e-notary, algorithmic bias, digital justice, equal access

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda ham raqamli transformatsiya turli sohalarga kirib bormoqda. Xususan, sud tizimi, aholiga yuridik yordam ko’rsatish va boshqalar shular jumlasidandir. Hozirgi kunda bir qancha platformalardan keng foydalanilmoqda. Ularga misol qilib e-sud, my.gov.uz, advice.uz, e-notariusni keltirishimiz mumkin. Bunday keng qamrovli yangilanishlar jamiyatda huquqiy ongni yuksaltirish, fuqarolarning adolat va shaffoflikka bo‘lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Raqamlashtirish jarayoni qancha samarali, tez va innovatsion bo‘lmasin, u bilan birga albatta adolatlilik tamoyiliga ehtiyoj sezamiz. Chunki raqamli tizimlar orqali taqdim etilayotgan huquqiy xizmatlardan barcha fuqarolar teng imkoniyatlar bilan foydalana olmayapti. Hududiy, iqtisodiy, texnik va raqamli tafovutlar sabab ko‘pchilik fuqarolar raqamli huquqiy xizmatlardan foydalanishdan chetda qolishmoqda. Shu sababdan, raqamlashtirilgan tizimda adolatlilik prinsipini ta’minlash, ya’ni har bir fuqaro, u joylashgan hudud, ijtimoiy kelib chiqishi, mavqeyi va texnologik imkoniyatlaridan qat’iy nazar teng huquqli ravishda raqamli huquqiy xizmatlardan foydalana olishini ta’minlash bugungi kundagi dolzarb masalalardan biriga aylandi.

Huquqiy xizmatlarning raqamlashtirilishi, ya’ni onlayn tarzda olib borilishi bir tomondan samaradorlik, shaffoflik va vaqt tejalishi kabi ijobiy jihatlarni beradi. Masalan, notarial harakatlarni onlayn ro‘yxatdan o‘tkazish, sud ishlarini elektron shaklda ko‘rib chiqish, davlat xizmatlarini masofadan olish – bularning hammasi inson omilini kamaytiradi va korrupsiya xavfini pasaytiradi. Ammo ikkinchi tomondan, algoritmik tarafkashlik, ma’lumotlar maxfiyligi buzilishi, raqamli tafovut kabi xavflarni keltirib chiqarmoqda.

Masalan, onlayn notarial tizim yoki e-sud platformasi misolida ko‘rib o‘tadigan bo‘lsak: tizimda 20 mingta eski sud ishlari ma’lumotlari bor deylik. Ulardan 70% shahar aholisi, 30% esa qishloq aholisi va sud qarorlarining 80% shahar aholisi foydasiga chiqqan. Endi algoritm shu ma’lumotlarga tayanib “o‘rganadi” va keyingi yangi da’voda ham shahar aholisi foydasiga qaror chiqishi ehtimoli ko‘proq deb o‘ylaydi. Bu infratuzilma yoki odamning emas, balki ma’lumotning o‘zidagi tarafkashlik sababli yuz beradi.

Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan bir paytda ularning huquqiy tizimga integratsiyasi nafaqat texnik, balki axloqiy, huquqiy va ijtimoiy muvozanatni talab qilmoqda.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Xalqaro miqyosda ushbu masala ko‘plab olimlar va tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilmoqda. Masalan, Goodman [1], Barocas & Selbst [2] shular jumlasidan.

Mazkur ilmiy maqolani tayyorlashda normativ-huquqiy hujjatlar tahlili orqali qonunchilikdagi adolat prinsipining ifodalanish darajasi o‘rganildi [3]; statistik usul yordamida e-hukumat tizimidan foydalanish ko‘rsatkichlari tahlil qilindi; qiyosiy-huquqiy usul bilan O‘zbekiston tajribasi Estoniya, Janubiy Koreya va Singapur amaliyoti bilan solishtirildi. Ushbu davlatlarning tajribasida raqamli texnologiyalar huquqiy xizmatlar tizimida adolatni ta’minlash vositasi sifatida muvaffaqiyatli tatbiq etilgan bo‘lib, bu O‘zbekiston uchun ham muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot jarayonida, shuningdek tizimli-tuzilmaviy yondashuvdan foydalanildi. Bu orqali raqamli huquqiy xizmatlar tizimi yagona boshqaruv mexanizmi sifatida ko‘rib chiqildi. “Elektron hukumat”, “my.gov.uz”, “e-sud”, “e-notarius” kabi platformalarning foydalanuvchilar uchun ochiqligi va tenglikni ta’minlashdagi samaradorligi aniqlashtirildi.

Tahlil davomida induksiya va deduksiya usullari qo‘llanilib, mavjud qonunchilikdagi normalar umumiy prinsiplardan kelib chiqib tahlil qilindi, so‘ngra alohida holatlarga tatbiq etildi. Bu yondashuv adolat tamoyilining nafaqat normativ asoslarda, balki amaliyotda qanday ifodalanayotganini aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF–6079-sonli “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi, “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi, “Elektron hukumat to‘g‘risida”gi kabi qonunlar asosiy manba sifatida foydalanildi.

Xalqaro tajribani o‘rganishda Bryce Goodman (2020) va Barocas & Selbst (2016)ning algoritmik adolat haqidagi nazariyalari tahlil qilinib, ularning g‘oyalari O‘zbekiston sharoitiga moslashtirildi. Natijada tadqiqot metodologiyasi huquqiy xizmatlarni raqamlashtirishda adolat, shaffoflik va tenglikni ta’minlash bo‘yicha ilmiy asoslangan yondashuvni shakllantirish imkonini berdi.

Ushbu tadqiqot davomida olingan natijalar O‘zbekiston Respublikasida huquqiy xizmatlarni raqamlashtirish jarayonining bugungi holati, adolatlilik prinsipining ta’minlanishi darajasi va bu sohada tez-tez uchrayotgan tizimli muammolarni ko‘rsatib berdi. Raqamli transformatsiya davlat xizmatlarini ko‘rsatishda muhim o‘zgarishlar keltirib chiqargan bo‘lsa-da, amaliy natijalarning fuqarolar o‘rtasida teng imkoniyatlar bilan to‘liq ta’minlanmaganini ko‘rishimiz mumkin.

O‘zbekiston so‘nggi yillarda raqamli iqtisodiyot va elektron boshqaruv tizimlarini rivojlantirishda Markaziy Osiyoda yetakchi o‘ringa chiqmoqda. “Digital 2025: Uzbekistan” ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yil holatiga internetdan foydalanuvchilar soni 95 foizdan oshib, aholining 34 milliondan ortig‘i raqamli infratuzilmalardan doimiy ravishda foydalanib kelishmoqda [4]. Shu bilan birga, “my.gov.uz” portali orqali 2024-yilda 28 milliondan ortiq elektron xizmat ko‘rsatilgan, avvalgi yillar bilan solishtirilganda bu ko‘rsatkich

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

2020-yilga nisbatan 3,2 baravar ko‘pdir [5].

Biroq raqamli infratuzilmaning hududlar kesimidagi taqsimoti adolat prinsipiga to‘liq javob bermaydi. Toshkent shahri aholisining 92 foizi raqamli hukumat loyihalaridan foydalansa, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Surxondaryo viloyatlarida bu ko‘rsatkich 58–61 foizni tashkil etadi [6]. Bu raqamlar infratuzilma va texnik imkoniyatlar cheklanganligini, raqamli adolatda anchagina tafovut mavjudligini ko‘rsatadi.

Raqamli huquqiy xizmatlardan foydalanuvchilarning ijtimoiy profili ham adolatga bevosita ta’sir etuvchi omil hisoblanadi. Tadqiqot davomida o‘tkazilgan so‘rovnomalarga ko‘ra, foydalanuvchilarning 64 foizi oliy ma’lumotga ega, 23 foizi o‘rta maxsus, 13 foizi esa umumiy o‘rta ma’lumotli fuqarolardan iborat[7]. Bu esa raqamli savodxonlikning adolatli taqsimlanmagani va aholining nisbatan pastroq ijtimoiy qatlamlari raqamli xizmatlardan to‘liq foydalana olmasligini ko‘rsatadi.

Huquqiy xizmatlar sohasida raqamlashtirishning eng muhim loyihalari sifatida – “e-sud”, “e-notarius”, “e-anticor”, “my.gov.uz” hamda “lex.uz” kabilarni ko‘rishimiz mumkin. Adliya vazirligining 2024-yilgi ma’lumotlariga ko‘ra, “e-sud” tizimi orqali yil davomida 1,3 milliondan ortiq ariza raqamli shaklda ko‘rib chiqilgan, shundan 72 foizi yakuniy sud qarorigacha yetkazilgan[8]. Shu bilan birga, notarial xizmatlarning 85 foizi elektron shaklga o‘tkazilgan, ulardan 40 foizi “E-notarius” platformasi orqali amalga oshirilgan [9].

Ammo raqamlashtirishning adolatlilik prinsipiga ta’siri bir xil bo‘lmagan. Masalan, “E-sud” tizimida internetga kirish imkoni past bo‘lgan hududlarda ariza topshirish ko‘rsatkichlari o‘rtacha respublika darajasidan ikki baravar kam. Bundan tashqari, ayrim foydalanuvchilar texnik nosozliklar, tizim yuklanishining sekinligi yoki autentifikatsiya jarayonlarining murakkabligi tufayli xizmatlardan foydalanishda qiyinchiliklarga duch kelishmoqda.

Yana bir muhim jihat – algoritmik qaror qabul qilish tizimlarida tarafkashlik (bias) xavfining mavjudligidir. Masalan, notarial tasdiqlashda yoki elektron sud jarayonlarida ba’zi holatlarda tizim avvalgi ma’lumotlarga tayanib, foydalanuvchilarning huquqiy maqomiga ko‘ra ustuvorlik beradi. Bunday holatlar adolat tamoyilining buzilishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Raqamli adolatni ta’minlashda huquqiy baza bosqichma-bosqich shakllanmoqda. 2020-yilda qabul qilingan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi, “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi qonun (2015-yil) va “Elektron hukumat to‘g‘risida”gi qonun (2019-yil) ushbu sohada normativ asos yaratgan. Shu hujjatlar orqali davlat xizmatlarida ochiqlilik, shaffoflik va teng imkoniyat prinsiplari belgilab qo‘yilgan. Biroq, amaliyotda bu prinsiplarga qaysidir ma’noda to‘liq rioya qilinmayapti.

Estoniyada e-hukumat tizimi fuqarolarning 99 foizini qamrab olgan bo‘lib, barcha yuridik xizmatlar yagona “e-Justice” portali orqali amalga oshiriladi [10]. Janubiy Koreyada esa 2023-yilda raqamli sud qarorlarining 95 foizi onlayn platforma orqali ko‘rilgan.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Singapurda “OneLegal” tizimi yordamida barcha advokatlik va notarial faoliyat raqamli identifikatsiya orqali boshqariladi [11].

O‘zbekiston tajribasi bu davlatlarga nisbatan ijobiy yo‘nalishda bo‘lsa-da, adolatlilik prinsipini to‘liq ta’minlash uchun hali ko‘p masalalar hal etilishi kerak. Jumladan, raqamli xizmatlarda foydalanuvchilarni himoya qilish, algoritmik qarorlarning shaffofligini oshirish, hamda kiberxavfsizlikni yanada kuchaytirish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

So‘rov natijalariga ko‘ra, fuqarolarning 68 foizi raqamli yuridik xizmatlardan kamida bir marotaba foydalangan, biroq ulardan 37 foizi jarayon davomida texnik yoki huquqiy muammoga duch kelgan[12]. Ayniqsa, 50 yoshdan yuqori bo‘lgan fuqarolarda raqamli savodxonlik darajasining pastligi tufayli adolatli kirish imkoniyati cheklangan. Shu sababli, raqamli adolatni mustahkamlash uchun hukumat tomonidan raqamli savodxonlik dasturlarini kengaytirish juda zarurdir.

Fuqarolarning 72 foizi raqamli xizmatlardan foydalanishda ishonch darajasi o‘rta yoki past deb baholagan[13]. Bu natija shuni ko‘rsatadiki, raqamli adolat faqat texnik emas, balki ijtimoiy ishonch bilan ham chambarchas bog‘liq.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, raqamli transformatsiya huquqiy xizmatlar sifati sezilarli darajada oshirilgan, biroq adolat tamoyilining amaliy ta’minlanishi hali hamon barcha aholini to‘liq qamrab olgan emas. Asosiy muammolar quyidagilardan iborat:

- *hududiy va ijtimoiy tafovutlar;*
- *algoritmik tarafkashlik;*
- *shaffoflikning yetarli emasligi;*
- *raqamli savodxonlik pastligi;*
- *texnik infratuzilma farqlari.*

Shunga qaramay, davlat siyosatidagi yangi yondashuvlar, masalan, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi, Adliya vazirligi huzurida “Digital Justice” markazining tashkil etilishi, “E-sud” tizimining yanada takomillashuvi adolat tamoyilini mustahkamlash uchun yangi bosqichni boshlab berdi.

Birinchidan, O‘zbekiston Respublikasida huquqiy xizmatlarni raqamlashtirish jarayonida adolatlilik prinsipini ta’minlash davlat boshqaruvi va sud-huquq tizimining yangi bosqichga o‘tishini ifodalaydi. So‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida elektron hukumat, e-sud, e-notariat kabi tizimlarning joriy etilishi aholiga qulaylik yaratdi, biroq bu tizimlardan foydalanish imkoniyati barcha qatlamlar uchun teng emasligi adolat tamoyilini to‘liq ro‘yobga chiqarmayapti. Shuning uchun raqamli infratuzilmani yanada kengaytirish, ayniqsa, qishloq hududlarida internet tarmog‘iga ulanish imkoniyatlarini yaxshilash, fuqarolarning raqamli savodxonligini oshirish eng dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Ikkinchidan, raqamli huquqiy xizmatlarda algoritmik boshqaruv joriy etilishi inson omilini kamaytirgani holda samaradorlikni oshiradi, lekin shu bilan birga, yashirin algoritmik tarafkashlik

xavfini ham kuchaytiradi. Goodman (2020) tadqiqotida qayd etilishicha, agar algoritm o‘zida tarixiy yoki ijtimoiy tarafkashlikni mujassam etgan bo‘lsa, u holatda natijalar adolatsiz bo‘lishi mumkin. Shu bois, huquqiy xizmatlarda foydalanilayotgan sun’iy intellekt tizimlari muntazam ravishda inson huquqlari ekspertizasidan o‘tkazilishi, shuningdek, ularning shaffofligi va izohlanish mexanizmlari qonuniy asosda tartibga solinishi zarur.

Uchinchidan, xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, raqamli adolatga erishish uchun davlat siyosatida “digital inclusion”, ya’ni raqamli tenglik tamoyilining qat’iy e’tirof etilishi zarur. OECD (2023) hisobotiga ko‘ra, raqamli xizmatlardan foydalanish imkoniyatidagi farqlar ijtimoiy tengsizlikni kuchaytiradi va aholining davlatga bo‘lgan ishonchini pasaytiradi. Shu sababli, O‘zbekistonda ham davlat xizmatlarining raqamli shakllaridan foydalanish bo‘yicha muntazam ijtimoiy monitoring tizimini yo‘lga qo‘yish lozim. Bu orqali adolatli yondashuvning amaliy darajasi baholanadi va zarur islohotlar uchun asos yaratiladi.

To‘rtinchidan, fuqarolarning shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilish, ularning raqamli huquqlarini kafolatlash ham adolatlilik prinsipining ajralmas qismidir. Barocas va Selbst (2016) tomonidan ta’kidlanganidek, “katta ma’lumotlar” (Big Data) tizimlarida shaxsiy ma’lumotlarning noto‘g‘ri ishlatilishi raqamli adolatga putur yetkazadi[14]. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston qonunchiligida “Shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunni xalqaro standartlar, xususan, Yevropa Ittifoqining GDPR (2018) me’yorlari bilan uyg‘unlashtirish maqsadga muvofiqdir.

Beshinchidan, adolatli raqamli tizimni barpo etish uchun sun’iy intellekt asosidagi huquqiy xizmatlarda inson omilining nazorati saqlanib qolishi zarur. Ya’ni, avtomatlashtirilgan qarorlar ustidan inson tomonidan qayta ko‘rib chiqish (appeal) mexanizmini qonuniy darajada joriy etish lozim. Bu, bir tomondan, huquqiy xizmatlarning ishonchliligini oshirsa, ikkinchi tomondan, raqamli muhitda inson qadr-qimmatining ustuvorligini ta’minlaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, huquqiy xizmatlarni raqamlashtirish texnologik yangilanish emas, balki adolat, ishonch va tenglikni raqamli muhitda qayta tiklash jarayonidir. Shu bois, adolat tamoyilini mustahkamlash davlat siyosatining ajralmas qismi sifatida, huquqiy tizimda barqaror va inklyuziv raqamli islohotlarning poydevorini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1.Bryce Goodman. https://uk.linkedin.com/in/bryce-goodman

2.Barocas & Selbst. https://www.cs.yale.edu/homes/jf/BarocasSelbst.pdf

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–6079-sonli Farmoni, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida, 2020-yil 5-oktabr. http://lex.uz//docs/-5030957

4. https://datareportal.com/reports/digital-2025-uzbekistan

5.Elektron xizmatlar rivojlanish holati tahlili (2024) https://adliya.uz/uzb/inner-page/ichki-audit-bolimi/2024-yil-hisoboti

6. https://www.undp.org/sites/g/files/zskgke326/files/2025-05/uz_digital-economy-study_uz.pdf
7. Adliya vazirligi so‘rovnoma natijalari (2024). https://adliya.uz/inner-page/jismoniy-va-yuridik-shaxslar-murojaatlarini-korib-/adliya-vazirligiga-2024-yilning-9-oyligi-davomida-
8. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining yillik hisobotlari (2024). https://stat.sud.uz/
9. Adliya vazirligi. E-notarius faoliyati to‘g‘risida axborot (2024). https://gov.uz/oz/adliya/sections/view/46333
10. e-justice portali https://e-justice.europa.eu/
11. Singapurning One Legal tizimi: https://www.onelegal.com/
12. https://gov.uz/oz/adliya/sections/view/46333
13. https://www.oecd.org/en/publications/2023-oecd-digital-government-index_1a89ed5e-en.html
14. Big Data’s Disparate Impact https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=2477899